



## “Yoshlar daftari”ga kiritilganlarga subsidiya ajratiladi

3-betda o'qing



## Talaba qachon o'qishdan chetlashtiriladi?

4-betda o'qing

# INSON va qonun

2024-YIL  
16-APREL  
SESHANBA

№ 15  
(1427)

www.hudud24.uz

@adolat\_nashrlari



“ADOLAT”

“ADOLAT” milliy huquqiy axborot markazi nashrlariga obuna bo'ling!



“Adolat nashrlari” telegram kanalida kuzating!



www.adolatmarkazi.uz telegram.me/hudud24official/ facebook.com/hudud24official/

## MAQSAD ANIQ – ADLIYA IDORALARI FAOLIYATINI FUQAROLAR IJOBIY O'ZGARISH ORQALI SEZISHINI TA'MINLASH



Davomi 2-betda

“

“Fuqarolarning har qanday muammolarini hal etish – davlatning xalqqa nisbatan asosiy majburiyatlaridan biri ekanini unutishga hech kimning haqqi yo'q!”

Shavkat MIRZIYOYEV



5-betda o'qing

## Mulkdorga kompensatsiya to'lanmagan



6-betda o'qing

## Til bilgan – el biladi



7-betda o'qing

## Muallif mutlaq huquqlarga ega

Jamiyatning taraqqiyot bosqichlarida kishilarning yangi turdagi haq-huquqlari va unga bo'lgan munosabatlar bilan birga, ularni tartibga solishga bo'lgan zarurat ham paydo bo'la boshlaydi. Insoniyat tarixida kitob bosishning ixtiro qilinishi bilan ushbu kitoblarda bayon qilingan matnlarni mualliflik huquqi bilan himoya qilishga ehtiyoj yuzaga keldi. Mualliflik huquqlarini himoya qilishga qaratilgan ilk qonunchilik hujjat namunasi sifatida 1710-yilda qabul qilingan Angliya qirolichasi Anna statutlarini misol qilib keltirishadi.

XABARINGIZ BORMI?

### IMTIYOZLI KREDIT AJRATILADI

Qonunchilikka ko'ra, Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan quritish sexi va sovitkichli omborxonalarini xarid qilishga 50 milliard so'm mablag' ajratilishi belgilangan.

Bunda, kredit qishloq xo'jaligi korxonalariga 36 oygacha imtiyozli davr bilan 84 oy muddatga yillik 14 foiz stavkada ajratiladi.

Kredit summasining 60 foizi bo'yicha garov ta'minoti sifatida o'rnatiladigan quritish sexi va sovitkichli omborxonalar olinishi, 40 foizi bo'yicha garov ta'minoti sifatida ularning qaytmaslik xatarini sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polisi olinishi belgilanadi.

### DAVLAT RAQAMI KO'RINMAYDIGAN TRANSPORTDAN FOYDALANISH TAQIQLANADI

Yo'l harakati qoidalariga ko'ra, davlat ro'yxatlash raqam belgilari ko'rinmaydigan, qalbakilashtirilgan, o'zgartirilgan bo'lsa, transport vositalaridan foydalanish taqiqlanadi.

Qonunchilikka muvofiq, davlat raqam belgilarini ko'rish imkoniyatini cheklaydigan, ularni anglashga to'sqinlik qiladigan turli ashyolar o'rnatish va qoplama surtish, ana shu qurilmalarni musodara qilib, quyidagicha miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi:

- fuqarolarga BHMning 1 baravaridan 3 baravarigacha (340 ming so'mdan 1 mln 20 ming so'mgacha);
- mansabdor shaxslarga BHMning 3 baravaridan 5 baravarigacha (1 mln 20 ming so'mdan 1 mln 700 ming so'mgacha).

### ELEKTRNI BEHUDA SARFLASH JAVOBGARLIKKA SABAB BO'LADI

Qonunchilikka binoan, elektr va issiqlik energiyasini behuda sarflash, ya'ni elektr dvigatellaridan, elektr pechlari va boshqa elektr hamda issiqlik uskunalardan muntazam ravishda, ishlab chiqarish zarurati bo'lmagan holda to'liq foydalanmaslik yoki ularni bekorga ishlatib qo'yish, yoritish uchun elektr energiyasidan xo'jasizlaracha foydalanish mansabdor shaxslarga BHMning 5 baravaridan 15 baravarigacha (1 mln 700 ming so'mdan 5 mln 100 ming so'mgacha) miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Qonunni bilmaslik javobgarlikdan ozod qilmaydi...

### NASLCHILIK SUBYEKTLARI UCHUN SOLIQ IMTIYOZI BERILGAN

Qonunchilikka asosan, naslchilik subyektlari uchun ularning asosiy faoliyat turi bo'yicha foyda solig'i (tijorat banklarida joylashtirilgan mablag'lardan olingan foizlardan tashqari), mol-mulk solig'i, yer solig'i va suv resurslaridan foydalanish uchun soliqni 50 foiz pasaytirilgan stavkada to'lash shaklidagi soliq imtiyozini muddati iqtisod qilingan mablag'larni asosiy faoliyatni rivojlantirishga yo'naltirish sharti bilan 2025-yil 1-yanvargacha qadar uzaytirilgan.



## 2 FAOLIYAT

# MAQSAD ANIQ – ADLIYA IDORALARI FAOLIYATINI FUQAROLAR IJOBIY O‘ZGARISH ORQALI SEZISHINI TA‘MINLASH



### ADLIYA IDORALARI XALQ BILAN HAMNAFAS

Adliya vazirining 2024-yil 18-yanvardagi tegishli buyrug‘i bilan joriy yil 20-yanvardan 1-aprelga qadar “Hech bir shaxs hujjatsiz qolmaydi” huquqiy aksiyasi o‘tkazildi.

Adliya vazirligi va uning tizimidagi tashkilotlar tomonidan o‘tkazilgan sayyor qabullar hamda kelib tushgan murojaatlar tahlil qilinganda, ayrim fuqarolarning tug‘ilishi qayd etilmagan sababli shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarga ega emasligi yoki vafot etgan ayrim shaxslarning o‘limi o‘z vaqtida qayd etilmagan meros masalasi va boshqa fuqarolik holati bilan bog‘liq holatlar muammolarga olib kelayotgani ayon bo‘ldi.

Bu albatta, fuqarolarning jamiyatda to‘laqonli munosabatga kirisha olmasligiga, o‘zining qonun bilan belgilangan huquqlaridan foydalanish imkoniyatining cheklanishiga sabab bo‘lgan.

Maqsad aniq – adliya organlarining bevosita aholi muammolarini hal etish va ularga amaliy yordam ko‘rsatish borasidagi faoliyatini yanada kuchaytirish hamda adliya idoralari faoliyatini fuqarolar o‘z hayotida ijobiy o‘zgarish orqali sezishini ta‘minlash. Aksiya doirasida barcha tuman (shahar) va ulardagi chekka hududlarni qamrab olish maqsadida aniq rejali harakatlar amalga oshirildi.

Birinchi navbatda, buyruq bilan hududiy, ya‘ni viloyat darajasida hamda tuman va shaharlarda shtablar tashkil qilindi. Har bir hududiy shtablar tarkibiga vazirlik markaziy apparatining tarkibiy bo‘linma rahbarlaridan, shuningdek, tuman (shahar) shtablariga hududiy adliya organining bit-tadan xodimlari mas‘ul etib belgilandi.

Ikkinchidan, mahallalar kesimida xatlov o‘tkazish reja grafiklari tasdiqlandi. Bunda, manfaatdor tashkilotlar va mahalla yettiligidan ixtiyoriylik asosida “yordamchi kuchlar” jalb qilindi.

Tuman (shahar) shtablarida ikki guruhga bo‘lingan holda ishlar tashkil etildi:

- ☑ birinchi guruh reja grafik asosida mahallalarni xatlovdan o‘tkazdi va tegishli shaxslar ro‘yxatini shakllantirdi;
- ☑ ikkinchi guruh aksiya doirasida tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish uchun murojaat qilgan shaxslarning murojaatini ro‘yxatdan o‘tkazdi.

Shuningdek, “1148” ishonch raqami va ijtimoiy tarmoqda yaratilgan maxsus bot orqali murojaatlar qabul qilindi.

### ASOSIY VAZIFALAR BELGILANDI

- ☑ Respublika miqyosida tug‘ilganlik va o‘lim holatlari qayd etilmagan fuqarolarning ro‘yxatini shakllantirish, shuningdek, ularning tug‘ilishini va o‘limini qayd etish choralarini ko‘rish;
- ☑ bunda, tug‘ilganlik yoki o‘lim haqida tibbiy ma‘lumotnomaga ega bo‘lmagan hollarda yuridik faktini belgilash yuzasidan sudlarga arizalar kiritish orqali tug‘ilganlik (o‘lim) faktini belgilash choralarini ko‘rish;
- ☑ tug‘ilishi qayd etilmagan sababli fuqarolik pasporti yoki identifikatsiyalovchi ID-karta olmagan shaxslarga tegishli hujjatlarni olishda amaliy yordam ko‘rsatish;
- ☑ ro‘yxatdan o‘tkazilmagan tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazishga ko‘maklashish;
- ☑ davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmagan ko‘chmas mulklarni ro‘yxatdan o‘tkazishga ko‘maklashish;
- ☑ huquqiy yordamga muhtoj aholi qatlamining muammolarini o‘rganish va hal qilish choralarini ko‘rish.

Shuningdek, aholida quyidagi ko‘nikmalarni hosil qilish yuzasidan “my.gov.uz” va “yurxizmat.uz”,

“advice.uz” portallaridan foydalanish tartibi, bepul ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari turlari va boshqalar.

Aksiya doirasida vakolatli tashkilotlar bilan hamkorlikda masalalarni tezkorlik bilan hal etish maqsadida Oliy sud, Sog‘liqni saqlash vazirligi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga xatlar kiritildi.

Masalan, Oliy sudga kiritilgan xatda aholining ijtimoiy ko‘makka muhtoj ushbu qatlamiga bir martalik yordam ko‘rsatish maqsadida aksiya muddati davomida tug‘ilganlik faktini belgilash bo‘yicha adliya organlari tomonidan kiritilgan da‘vo arizalarini tezlashtirilgan tartibda ko‘rib chiqish bo‘yicha fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarga ko‘rsatma berish so‘raldi.

### AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR SAMARALI NATIJA BERDI

Respublika miqyosida jami 9 ming 442 ta mahallada xatlov o‘tkazilib, 124 ming 99 nafar shaxsda tegishli hujjatlar mavjud emasligi aniqlandi. Shundan 116 ming 415 tasi ijobiy hal etildi, qolgan holatlar o‘rganib chiqilmoqda. Jumladan, 1 ming 639 nafar shaxsning tug‘ilishi qayd etib berildi, 300 nafar shaxsning tug‘ilishini qayd etish uchun tug‘ilganlik faktini belgilash yuzasidan sudlarga ariza kiritildi. 11 ming 796 nafar shaxsga tug‘ilganlik haqida takroriy guvohnoma berildi, ya‘ni hujjatini yo‘qotib qo‘ygan fuqarolarga qayta tiklab berildi. 10 ming 314 ta qonuniy nikohdan o‘tmasdan birga yashayotgan shaxslarning nikohi qayd etildi. 3 ming 246 nafar shaxsning o‘limi muddati o‘tib qayd etildi. 749 nafar shaxsning o‘lim faktini belgilash yuzasidan sudlarga ariza kiritildi, 4 ming 21 nafar shaxsning o‘limi haqida takroriy guvohnoma berildi. 11 ming 357 nafar fuqaroga ID-karta rasmiylashtirildi. 29 ming 118 ta tadbirkorlik subyekti davlat ro‘yxatidan, 15 ming 312 ta tadbirkorlik subyekti qayta ro‘yxatdan o‘tkazildi. 24 ming 480 ta ko‘chmas mulk obyektlari davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi, 123 ming 362 ta sayyor davlat xizmatlari ko‘rsatildi.

### XALQIMIZ BEHAD MINNATDOR

Navoiy viloyatida adliya boshqarmasi tomonidan Nurota tumanining olis Qizilcha qishlog‘ida istiqomat qilayotgan 94 yoshli onaxonning tug‘ilganlik haqidagi guvohnomaga ega emasligi aniqlanib, unga ilk bor mazkur hujjat rasmiylashtirilib, topshirildi.

Ma‘lum bo‘lishicha, fuqaro 1930-yil 1-iyulda tug‘ilgan, ammo hayot tashvishlari bilan bo‘lib, tug‘ilganlik haqidagi guvohnoma olinmagan.

Adliya va FHDY bo‘limi xodimlari

tomonidan tug‘ilganlik faktini belgilash yuzasidan sudga ariza kiritish orqali fuqaroning tug‘ilishi qayd etib berildi, endilikda shaxsini tasdiqlovchi hujjat ramiylashtirish choralarini ko‘rilmoqda.

Yurtboshimiz tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosat va adliya xodimlarining sa‘y-harakatlaridan minnatdor bo‘lgan onaxon bu kutilmagan holatdan ko‘zida sevinch yoshlari bilan duo qildi.

Bunday minnatdorlik misolini Farg‘ona tuman adliya bo‘limi xodimlari tomonidan tumanning “Dehqonobod” mahallasida amalga oshirilgan xatlovlarda 1942-yilda tug‘ilgan Paxriddinov Uraim otaning tug‘ilishini qayd etishda ham ko‘rish mumkin.

Bundan tashqari, 1994-yilda Andijon shahrida tug‘ilgan Husniddinning bugungi kunga qadar tug‘ilishi qayd etilmagan va buning oqibatida shaxsini tasdiqlovchi birorta ham hujjatga ega bo‘lmagan aniqlanib, malakali mutaxassislar tomonidan holat o‘rganib chiqildi va 30 yoshida tug‘ilishi qayd etilib, tug‘ilganlik haqidagi guvohnoma va shaxsini tasdiqlovchi ID-karta rasmiylashtirib berildi.

Toshkent shahrida 2019-yilda tug‘ilgan O.A. tegishli hujjatlari mavjud bo‘lmagan sababli onkologik kasallik yuzasidan davolanish uchun ota-onasi uni chet davlatga olib chiqib ketolmayotgani aniqlanib, darhol unga barcha hujjatlar (xorijga chiqish pasporti) rasmiylashtirildi. 92 yoshni qarshilagan Bella Doroginaning tug‘ilgan kunida holidan xabar olinib, ID-karta bilan ta‘minlandi.

Navoiy viloyatida mahallalarda o‘tkazilayotgan xatlovlar bilan cheklanib qolmasdan, jazoni ijro etish muassasalarida jazo o‘tayotgan shaxslarning ham hujjatlari mavjudligi holatlari o‘rganilib, 25 ta mahkumga tug‘ilganlik haqida guvohnoma, 10 ta mahkumga esa ID-kartalar rasmiylashtirildi. Hozirda ularning ayrimlarini nikohini ham qayd etib berish masalasi ko‘rib chiqilmoqda.

Samarqand va Toshkent viloyatlarida esa uyida sodir bo‘lgan yong‘in natijasida barcha hujjatlari yonib ketgan oilalar aniqlanib, tegishli hujjatlarni rasmiylashtirishda yordam ko‘rsatildi. Masalan, Zangiota tumanidagi bir oilaga jami 8 ta hujjat, jumladan, 4 nafar farzandiga va ota-onaning o‘ziga tug‘ilganlik, nikoh guvohnomalari hamda kadastr hujjatlari rasmiylashtirildi.

Huquqiy aksiya rasman to‘xtatilgan bo‘lsa-da, amalda har bir hududda, har bir mahallada, har bir muassasada davom etmoqda. Demak, “Hech bir shaxs hujjatsiz qolmaydi!”

**Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazlari va FHDY organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi**



**Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi qarori bilan tasdiqlangan “Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, shuningdek, tuman (shahar) lardagi “Yoshlar daftari” jamg‘armalari to‘g‘risida”gi Nizomning 8-bandiga ko‘ra, tuman (shahar) “Yoshlar daftari” jamg‘armasi mablag‘lari daftarga kiritilgan, dehqonchilik va tomorqa xo‘jaligini yuritish bilan shug‘ullanayotgan yoshlarga urug‘lik va ko‘chatlar sotib olish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 8 baravarigacha miqdorda subsidiya ajratishga yo‘naltirilishi belgilangan.**



## “Yoshlar daftari”ga kiritilganlarga subsidiya ajratiladi

Subsidiya ajratish tartibi Hukumatning yuqorida qayd etilgan qaroriga 2-ilova “Yoshlar daftari”ni yuritish orqali yoshlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra, tomorqa yer egasi bo‘lgan yoki dehqonchilik bilan shug‘ullanish uchun, shu jumladan, yangi o‘zlashtirilgan, lalmi, foydalanilmayotgan yer maydonlarida 0,1 gektardan 1 gektargacha yer maydoni ajratib berilgan yoshlarga urug‘lik va ko‘chatlar xarid qilish uchun BHMning 8 baravarigacha miqdorda hokim yordamchisining ijobiy tavsiyasi asosida “Yoshlar daftari” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan ushbu Nizomning 5-ilovasida keltirilgan sxemaga muvofiq subsidiya ajratiladi.

Subsidiya ajratish uchun ariza beruvchi Vasiylik kengashiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- ariza beruvchining egaligida yoki foydalanishida bo‘lgan yerga nisbatan huquqini tasdiqlovchi hujjat (ijara shartnomasi va boshqalar);
- urug‘lik va ko‘chatlarni xarid qilish bo‘yicha yetkazib beruvchi tashkilot bilan tuzilgan shartnoma nusxasi. Shartnomada yetkazib beruvchining nomi, STIR, xarid qilinadigan mahsulot nomi, to‘lov summasi ko‘rsatilishi lozim.

Taqdim etilgan hujjatlardagi ma‘lumotlarning to‘g‘riligi va haqqoniyligi uchun ariza beruvchi javobgar hisoblanadi.

Ushbu bandeda nazarda tutilgan hujjatlar taqdim etilgandan so‘ng Vasiylik kengashi uch ish kuni ichida murojaatni unga ilova qilingan hujjatlar bilan birga ariza beruvchi faoliyat yuritayotgan mahalladagi hokim yordamchisiga ko‘rib chiqish uchun yuboradi.


Hokim yordamchisi yoshlar yetakchisi va tegishli soha mutaxassislari bilan birgalikda ariza beruvchining murojaati tushgan kundun boshlab besh ish kuni ichida joyiga chiqqan holda ariza beruvchining tomorqa yerida yoki dehqonchilik bilan shug‘ullanish uchun ajratilgan ekin maydonida urug‘lik va ko‘chatlar ekish uchun mavjud sharoitni o‘rganadi. O‘rganish natijalariga ko‘ra, ariza beruvchining tomorqa yeriga yoki dehqonchilik bilan shug‘ullanish uchun ajratilgan ekin maydonida urug‘lik va ko‘chatlar xarid qilish uchun subsidiya ajratish haqidagi tavsiyanoma yoki rad qilish to‘g‘risidagi xabarnomani Vasiylik kengashiga kiritadi. Bunda subsidiya ajratishni rad etish haqida xabarnoma yuborilganda rad etish sabablari asoslanishi talab etiladi.

Agar hokim yordamchisi murojaatni unga tushgan paytdan boshlab besh ish kuni ichida ko‘rib chiqmasa yoki subsidiya ajratishni asossiz rad etish haqida xabarnoma bersa, ariza beruvchining murojaati talablarga muvofiq bo‘lganda Vasiylik kengashi uning murojaatini qanoatlantirish huquqiga ega bo‘ladi. Vasiylik kengashining qaroriga asosan uch ish kuni ichida “Yoshlar daftari” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya yetkazib beruvchi tashkilotning hisob raqamiga o‘tkaziladi.

**Jamshid BEKIMBETOV,**

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi mas‘ul xodimi

**Fuqaro D. Mirzatullayevaning Jizzax davlat pedagogika universitetida tahsil olayotgan farzandi S. Yulchiyeva uchun Toshkent viloyat hokimligi tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi qarori asosida kontrakt to‘lovlari bugungi kunga qadar to‘lab berilmaganidan norozi bo‘lib qilgan murojaati Toshkent viloyat adliya boshqarmasi tomonidan o‘rganildi.**



**TALABAGA KONTRAKT PULI, O‘QITUVCHIGA ESA MODDIY YORDAM...**

O‘rganish natijasiga ko‘ra, boshqarma tomonidan Toshkent viloyat hokimligiga taqdimnoma kiritilib, fuqaroning farzandi S. Yulchiyeva va yana 150 nafar ta‘lim olayotgan ehtiyojmand xotin-qizlarga hukumat qarori asosida jami 1,1 mlrd so‘mlik kontrakt to‘lovlari to‘lab berildi.

Fuqaro S. Nuraliyeva esa Bekobod tumanidagi 31-sonli o‘rta ta‘lim maktabida ancha yillardan buyon o‘qituvchi lavozimida ishlab kelayotgani, 2023-yilning oktabr oyida turmush o‘rtog‘i yo‘l transport hodisasiga uchrab, dori-darmon va sog‘lig‘ini tiklashda moddiy yordam puli olishga ehtiyoj yuzaga kelgani sababli maktab ma‘muriya-

ti, tuman maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limiga qilgan murojaatlariga ijobiy javob ololmaganidan norozi bo‘lib, adliya boshqarmasiga murojaat qilgan.

Ma‘lumki, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarining o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarini rag‘batlantirishning direktor jamg‘armasini tashkil etish va uning mablag‘laridan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 33-bandiga asosan, umumta‘lim muassasalari xodimlariga moddiy yordam kalendar yil davomida ikki lavozim maoshi (o‘qituvchining tarif stavkasi) miqdorigacha xodimning o‘zi va yaqin qarindoshi (otasi, onasi, turmush o‘rtog‘i, farzandi) vafot etganda, og‘ir kasallikka chalinganda, xodim tabiiy ofatdan zarar ko‘rganda ko‘rsatiladi.

Tegishli hujjatlar o‘rganilib, boshqarma tomonidan viloyat Maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmasiga fuqaroning qonuniy manfaatlarini inobatga olgan holda taqdimnoma kiritilib, fuqaroga direktor jamg‘armasidan tegishli tartibda moddiy yordam puli ajratildi.

**Nuriddin ISMAILOV,**

Toshkent viloyat adliya boshqarmasi mas‘ul xodimi

**Aslida dam olish va ishlanmaydigan bayram kunlari xodimlarni asossiz ishga jalb qilish qonunbuzarlik hisoblanadi. Buning uchun Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 49-moddasiga asosan bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravarigacha, agar bu harakat bir yil davomida takroran sodir etilgan bo‘lsa, BHMning 15 baravari miqdorida ma‘muriy jarima qo‘llanilishi mumkin.**



## Dam olish va bayram kunlari ishga jalb qilish mumkinmi?

Bordi-yu, tashkilot rahbarining bu harakatlari mehnatga majburlash alomatlarini mavjud bo‘lsa, vaziyat yanada og‘irlashadi.

“

Bunday holatda rahbar Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 51-moddasiga asosan bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravarigacha, agar bu pedagoglarga nisbatan sodir etilgan bo‘lsa, bazaviy hisoblash miqdorining 150 baravarigacha ma‘muriy jarimaga tortiladi. Agar mehnatga ma‘muriy majburlash ma‘muriy jazo qo‘llanilganidan keyin yana takrorlansa, bu harakat jinoyat sifatida baholanadi. Ya‘ni, Jinoyat kodeksining 148-moddasiga binoan, jinoyat javobgarlik choralarini qo‘llaniladi.


Ammo Mehnat kodeksining 210-moddasiga muvofiq, xodimlarni dam olish kunlari va ishlanmaydigan bayram kunlari ularning roziligisiz ham ishga jalb etish mumkin. Bunga tabiiy yoki texnogen xususiyatga ega halokatlarning, ishlab chiqarishdagi avariyaalarning, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarning, shuningdek, yong‘inlarning, toshqinlarning, zilzilalarning, epidemiyalarning yoki epizootiyalarning oldini olish yoki oqibatlarini bartaraf etish hamda aholining yoxud uning bir qismining hayotiga yoki normal yashash sharoitlariga tahdid soladigan boshqa alohida hollarda bajariladigan ishlar amalga oshirilishi uchun, baxtsiz hodisalarning oldini olish uchun, markazlashtirilgan issiq suv ta‘minoti, sovuq suv ta‘minoti va (yoki) suv chiqarish tizimlarining, gaz ta‘minoti, issiqlik ta‘minoti, yoritish, transport, aloqa tizimlarining normal ishlashini buzadigan kutilmagan holatlarni bartaraf etishga doir ijtimoiy jihatdan zarur ishlarni amalga oshirish maqsadida, ish beruvchining mulkini nobud qilish yoki unga zarar yetkazishning oldini olish uchun yo‘l qo‘yilishi mumkin.

**Iskandar SAFAROV,**

Boysun tuman adliya bo‘limi yuridik xizmat ko‘rsatish markazi bosh yuriskonsulti



## 4 “MADAD” – MASLAHATCHI



Savollarga “Madad” NNT bosh mutaxassisi

**Abror EZO'XONOV**  
javob berdi



### QAYERGA MUROJAAT QILAY?

**– 1995-2016-yillarda turli xil zavod va fabrikalarda ishchi bo'lib ishlaganman. Hujjatlarda familiyam har xil bo'lib, tushib qolgani uchun menga pensiya tayinlash rad etildi. Qonunchiligimizga ko'ra menga qaysi davlat tashkiloti yordam ko'rsata oladi?**

**To'liq SHUHRATOV**

– Fuqarolik ishlari bo'yicha tuman sudiga yuridik fakti belgilash bo'yicha ariza kiritish mumkin. Arizaga quyidagi hujjatlarni ilova qilishingiz kerak: pasport, tug'ilganlik haqidagi guvohnoma, nikoh guvohnomasi nusxalari, arxiv ma'lumotnomasi (staj), guvohlik beruvchilarning tushuntirish xatlari, guvohlik beruvchilarning pasport nusxalari, pensiya tayinlash rad etilganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma, davlat boji va pochta xarajatlari uchun to'lov.



### TALABA QACHON O'QISHDAN CHETLASHTIRILADI?

**– Oliyog'ida ikkinchi kurs talabasiman. Oilaviy sharoitim, to'g'rirog'i, onam bemorligi sababli uzoq vaqt darslarga qatnasha olmadim. Dori-darmon, operatsiya va muolajalar uchun to'lovlar sabab kontrakt pulini ham o'z vaqtida to'lay olmadim. Hozirda meni o'qishdan chetlashtirishdi. Shu to'g'rimi?**

**Mehribon ABDURAZZOQOVA**

– Qonunchiligimizga ko'ra, talabalarini o'qishdan chetlashtirishga quyidagi holatlarda yo'l qo'yiladi. Avvalo, oilaviy sharoiti sabab talabani o'z xohishiga binoan u o'qishdan chetlashtirilishi mumkin. Shuningdek, o'qishning boshqa ta'lim muassasasiga ko'chirilishi munosabati bilan, talabani salomatligi sababli, ya'ni tibbiy komissiya ma'lumotnomasi asosida ham u o'qishdan chetlashtirilishi mumkin.

Bundan tashqari, talaba o'quv intizomini va oliy ta'lim muassasasining ichki tartib-qoidalarini hamda odob-ax-

loq qoidalarini buzganligi uchun yoki bir semestr davomida darslarni uzrlisabablarsiz 74 soatdan ortiq qoldirganligi sababli ham o'qishdan chetlashtiriladi.

O'qish uchun belgilangan to'lov o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi sababli (to'lov-kontrakt bo'yicha tahsil olayotganlar uchun), talaba sud tomonidan ozodlikdan mahrum etilganligi munosabati bilan yoki sud qaroriga ko'ra kirish imtihonlarida belgilangan tartibni buzganligi aniqlanganda ham u o'qishdan chetlashtiriladi. Talaba vafot etgani sababli ham shu holat qo'llaniladi.

Oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berilganligini e'tiborga olib, sizning sharoitingizda dars qoldirishingiz sabablarini ko'rsatgan holda, oliyog' rahbariyatiga oilaviy ahvolingizni to'g'ri tushuntirish yo'li bilan ham muammoga yechim topishingiz mumkin. To'lov-kontrakt bo'yicha muammoni esa ta'lim krediti orqali ham hal qilsangiz bo'ladi.

### JAVOGBARLIK BORMI?

**– Yangi uyga ko'chib o'tdik. Ko'p qavatli uyimizning atrofi hovli-joylar, mahallalar. Uyimiz yaqinida bolalar maydonchasi qurilgan, futbol maydonchasi ham bor. Lekin bolalarimizni yolg'iz ko'chaga chiqarmaymiz, ayniqsa, kechki paytda. Sababi, qarovsiz itlar ko'paygan. Qarovsiz itlarning egasiga javobgarlik bormi?**

**Ra'no TOLIBJONOVA**

– Albatta, javobgarlik bor. Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-iyuldagi “Qarovsiz qolgan hayvonlarni tutish va saqlash bilan bog'liq xizmatlar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga asosan “Aholi punktlarida itlar va mushuklarni saqlash qoidalarini” tasdiqlangan.

Ushbu qaror aholi punktlarida itlar va mushuklarni saqlash masalalarini tartibga solish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, shuningdek qarovsiz qolgan hayvonlarni tutish xizmatlari faoliyatini takomillashtirish maqsadida qabul qilingan. Mazkur qaror itlar va mushuklarning egalari, shu jumladan yuridik shaxslar uchun majburiy hisoblanadi.

Aholi punktlarida itlar ro'yxatga olinishi va har yili qayta ro'yxatdan o'tkazilishi shart. Bu jarayon tegishli veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi. Ro'yxatga olish davrida itlar vaksinatsiya qilinadi. Itlarning egalari belgilangan tartibda it uchun veterinariya pasporti beriladi. Har yili qayta ro'yxatdan o'tkazish va takroran vaksinatsiya amalga oshiriladi. Bu haqda veterinariya pasportiga tegishli ma'lumotlar kiritiladi.



Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tegishli veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limlariga itlarni quturishga qarshi o'z vaqtida vaksinatsiya qilish uchun itlarni saqlaydigan fuqarolar to'g'risidagi ma'lumotlarni ma'lum qiladi. Zotidan qat'i nazar, 3 oylikdan boshlab itlar vaksinatsiya qilinishi kerak. Yangi sotib olingan itlar, agar ular vaksinatsiya qilingan muddat noma'lum bo'lsa, sotib olingandan keyin bir hafta muddatda vaksinatsiya qilinishi hamda veterinariya pasporti rasmiylashtirilishi va ro'yxatga olinishi kerak.

Ko'p qavatli uyning alohida kvartirasida qo'shnilarning va xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatining roziligi bilan bittadan ortiq bo'lmagan itni va bitta mushukni saqlashga ruxsat beriladi. Alohida uyda itlarni saqlashga faqat bog'langan holda, erkin sayr qildirishda – atrofi o'ralgan hududda ajratilgan holda saqlashga yo'l qo'yiladi.

Itlar ochiq joylarda sayr qildirilgan va turar-joy binolarida itlarning egalari tinchlik saqlanishini ta'minlashlari shart.

Shaharlar va boshqa aholi punktlarida it va mushuk boqishning qoidalarini buzish, xuddi shuningdek mansabdor shaxslar tomonidan egasiz hayvonlarni tuttirish choralari ko'rmaganlik – jarima solishga sabab bo'ladi.



### MEROSDAN VOZ KECHISHNING TARTIBI QANDAY?

**– Stomatologman. Hozir chet elda yashayman. Bobom qishloqdagi hovlini menga meros qilib qoldirdi. Singlimning uy-joyga ehtiyoji bor. Merosdan singlimning foydasiga voz kechsam bo'ladimi?**

**Matluba BEGALIYEVA**

– Fuqarolik kodeksining 1147-moddasiga asosan merosxo'rda merosdan voz kechish huquqi mavjud. Merosxo'r meros ochilgan kundan e'tiboran istalgan vaqtda merosdan voz kechishga haqli. Merosdan voz kechish merosxo'r tomonidan meros ochilgan joydagi notariusga ariza berish orqali amalga oshiriladi. Agar ishonchnomada vakil orqali merosdan voz kechish vakolati maxsus nazarda tutilgan bo'lsa, merosdan shu tarzda voz kechilishi mumkin.

Merosdan voz kechish keyinchalik bekor qilinishi yoki qaytarib olinishi mumkin emas.

Mazkur kodeksning 1148-moddasiga ko'ra, merosdan voz kechish huquqi cheklanishi ham mumkin. Agar merosxo'r vasiyatnoma bo'yicha ham, qonun bo'yicha ham vorislikka chaqirilsa, u ana shu asoslarning biri yoki har ikkalasi bo'yicha o'ziga tegishli bo'lgan merosdan voz kechishga haqli.

Merosxo'r ulushning ortishi huquqi bo'yicha o'ziga tegishli bo'lgan merosdan, merosning qolgan qismiga vorislikdan qat'i nazar, voz kechishga haqli.

Merosxo'r merosdan voz kechgani vasiyatnoma bo'yicha yoki qonun bo'yicha merosxo'rlar jumlasidan bo'lmish boshqa shaxslar foydasiga voz kechayotganini ko'rsatishga haqli. Ushbu moddada nazarda tutilgan holdan tashqari merosning muayyan qismidan voz kechilishiga, merosdan izohotlar bilan yoki shartlar qo'yib voz kechilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Kodeksning 1149-moddasiga asosan merosxo'rda vasiyat majburiyatini qabul qilib olishdan voz kechish huquqi ham mavjud. Vasiyat majburiyati yuzasidan huquq oluvchi vasiyat majburiyatidan voz kechishga haqli. Qisman voz kechishga, izohotlar bilan, shartlar qo'yib yoki boshqa shaxsning foydasiga voz kechishga yo'l qo'yilmaydi.

Ushbu moddada nazarda tutilgan huquq ayni bir paytning o'zida ham merosxo'r, ham vasiyat majburiyatini qabul qilib oluvchi hisoblangan shaxsning merosdan voz kechish huquqiga bog'liq bo'lmaydi.

Agar vasiyat majburiyatini qabul qilib oluvchi ushbu moddada nazarda tutilgan huquqdan foydalangan bo'lsa, zimmasiga vasiyat majburiyati yuklatilgan merosxo'r bu majburiyatni bajarishdan ozod bo'ladi.

### SIFATSIZ MUZLATKICHNI TA'MIRLAB BERISHARMIKAN?

**– Yaqinda muzlatkich sotib olgandik. Sotuvchi sifatini juda yaxshi degandi. Lekin negadir yaxshi ishlaymayapti. Endi menga sifatsiz muzlatkichni ta'mirlab berisharmikan?**

**Anvar MAHMUDOV**

– Amaldagi qonunlarimiz bu borada iste'molchini qo'llab-quvvatlaydi, albatta. Qonunchiligimizga ko'ra, tovarda kafolat muddati davomida topilgan nuqsонlarni iste'molchi tegishli talab qo'ygan paytdan e'tiboran 20 kun ichida, ishlab chiqaruvchi esa, 10 kun ichida bepul bartaraf etishi lozim.

Sotib olingan tovar nosoz holatda bo'lsa, iste'molchi buning uchun sotuvchidan ma'naviy zarar undirishi ham mumkin. Iste'molchining huquqlari buzilishi tufayli unga yetkazilgan ma'naviy zararni zarar yetkazgan shaxs to'lashi lozim. Ma'naviy zarar uchun to'lanadigan haq miqdorini sud belgilaydi. Ma'naviy zarar uchun haq to'lash mulkiy ziyon va iste'molchi ko'rgan zararining o'ri qoplanishidan qat'i nazar, amalga oshiriladi.



**Fuqaro A.D.ning Bo'zatov tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi tomonidan 2023-yil noyabr oyida intizomiy jazo qo'llanilgani va buning natijasida bayram munosabati bilan rag'batlantirish puli berilmayotganidan norozi bo'lib qilgan murojaati tuman adliya bo'limi tomonidan o'rganildi.**

## Rag'batlantirish puli UNDIRIB BERILDI



Aniqlanishicha, bo'lim boshlig'ining 2023-yil 20-noyabrdagi buyrug'i bilan Mehnat kodeksining 312-moddasi, birinchi qismi, 1-bandiga asosan A.D.ga "hayfsan" intizomiy jazo chorasi qo'llanilgan. Intizomiy jazo chorasi qo'llanilishiga bo'limga qarashli umumta'lim maktablarining elektr energiyasi uchun pul mablag'larini o'z vaqtida o'tkazib berilmaganlik holati sabab bo'lgan.

Mehnat kodeksining 313-moddasi (Intizomiy jazo choralarini qo'llash tartibi)ning 1-bo'limida "Intizomiy jazo choralarini ishga qabul qilish huquqi berilgan shaxslar (organlar) tomonidan qo'llaniladi (ushbu Kodeks 127-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlari), ikkinchi qismida "Ish beruvchi xodimdan intizomiy jazo chorasi qo'llanilguniga qadar yozma tushuntirishni talab qilishi, shu jumladan, agar intizomiy qilmish xizmat tekshiruv natijalariga ko'ra aniqlangan bo'lsa,

talab qilishi shart. Xodimning yozma tushuntirish taqdim etishni rad etgani intizomiy jazo chorasi qo'llanilishi uchun monelik qilmaydi va hozir bo'lgan guvohlar ko'rsatilgan holda dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi", uchinchi qismida esa "Har bir intizomiy qilmish uchun faqat bitta intizomiy jazo chorasi qo'llanilishi mumkin. Intizomiy jazo chorasini tanlash huquqi ish beruvchiga tegishlidir. Intizomiy jazo chorasini qo'llashda sodir etilgan qilmishning og'ir-yengilligi, uning sodir etilishi holatlari, xodimning avvalgi ishi va xulq-atvori hisobga olinadi", to'rtinchi qismida "Xodimga intizomiy jazo chorasini qo'llash ish beruvchining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi", deb belgilangan.

Shuningdek, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 28-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi xodimlar nomenklaturasining yangi tahririni tasdiqlash haqida"gi 261-sonli buyrug'ining 8-ilovasida bo'lim bosh hisobchisi (murojaat muallifi ishlayotgan lavozim) Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi nomenklaturasiga kirishi ko'rsatilgan.

Shunga qaramasdan, A.D.ga bo'lim boshlig'ining 2023-yil 20-noyabrdagi buyrug'i bilan noqonuniy ravishda "hayfsan" intizomiy jazo chorasi qo'llanilgan. Oqibatda, A. D.ga Yangi yil bayrami munosabati bilan 2 million 363 ming 497 so'm, "Navro'z" bayrami uchun 3 million 545 ming 246 so'm, jami 5 million 908 ming 743 so'm miqdoridagi bayram pullari to'lab berilmagan.

Murojaatni o'rganish natijalari bo'yicha tuman adliya bo'limi tomonidan kiritilgan taqdimnoma asosida, bo'lim boshlig'ining buyrug'i bekor qilinib, xodimga to'lanmagan jami 5 million 908 ming 743 so'm miqdoridagi rag'batlantirish puli undirib berilishi ta'minlandi. Qonunbuzilish holatiga yo'l qo'yg'an mansabdor shaxs ma'muriy javobgarlikka tortildi.

**Kazbek PALUANIYAZOV,**  
Bo'zatov tuman adliya bo'limi boshlig'i

**Fuqaro S. Nasirovga tegishli bo'lgan xususiy mulk Yangiyer shahar dehqon bozori hududida joylashgan choyxona binosi buzib tashlanib, o'rniga bozor tomonidan boshqa savdo do'koni qurilgan. Ammo shahar hokimligi tomonidan kompensatsiya puli shu vaqtga qadar to'lanmagan. Bundan norozi bo'lgan fuqaro Sirdaryo tuman adliya bo'limiga murojaat qilib, kompensatsiya pulini undirishda amaliy yordam so'ragan.**



## MULKDORGA KOMPENSATSIYA TO'LANMAGAN

Aniqlanishicha, S. Nasirovning xususiy mulki hisoblangan choyxona binosi notarial rasmiylashtirilgan oldi-sotdi shartnomasiga asosan uning nomiga davlat ro'yxatiga olingan. 2017-yilda shahar hokimligi tomonidan davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilgan bino "Sirdaryo baholash va konsalting" MChJ tomonidan 164 million 725 ming 57 so'mga baholangan. Ammo shahar hokimligi tomonidan kompensatsiya puli to'lanishi kafolatlangan bo'lsa-da, shu vaqtga qadar to'lab berilmagan.

O'rganish natijasiga ko'ra, da'vogar tuman adliya bo'limi S. Nasirov manfaatida fuqarolik ishlari bo'yicha Guliston tumanlararo sudiga da'vo arizasi bilan murojaat qildi. Sud tarflarning ko'rsatmalarini tinglab, ish materiallarini tahlil qilib, ularga huquqiy baho berib da'voni qanoatlantirishni lozim deb topdi.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-dekabrdagi qarori bilan tasdiqlangan "Davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash bo'yicha markazlashtirilgan jamg'armalar mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini belgilash to'g'risida"gi Nizomning 8-bandiga muvofiq, Fuqarolik kodeksining 990-moddasiga asosan, davlat organlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining qonunga xilof qarorlari natijasida fuqaroga yoki yuridik shaxsga yetkazilgan zarar, ular mansabdor shaxslarining aybidan qat'i nazar, sudning qarori asosida qoplanishi lozim. Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari (harakatsizligi) natijasida fuqaroga yoki yuridik shaxsga yetkazilgan zarar sudning qarori asosida qoplanishi lozim.

Sud tomonidan da'vo talablari qanoatlantirilib, davlat va jamiyat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash bo'yicha markazlashtirilgan jamg'armalar mablag'larini shakllantirish bo'yicha hududiy jamg'armaning Sirdaryo viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi g'aznachiligida ochilgan shaxsiy hisob raqamida jamg'arilgan mablag'lar hisobidan da'vogar S. Nasirovning foydasiga 164 million 725 ming 57 so'm kompensatsiya pulini undirish yuzasidan hal qiluv qarori chiqarildi.

**Kamoliddin ERNAZAROV,**  
Sirdaryo tuman adliya bo'limi boshlig'i

### BILASIZMI?

## Baliq ovlaganlik uchun JAVOGBARLIK BOR



Qonunchilikka ko'ra, baliqlarning urchish davrida, ya'ni Amudaryo va Sirdaryoda 11-martdan – 31-maygacha, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidagi tabiiy suv havzalarida 26-apreldan 10-iyungacha va boshqa barcha tabiiy suv havzalarida 16-apreldan 31-maygacha baliq ovlash taqiqlangan.

Shunga muvofiq, tegishli ruxsati bo'lmay turib yoki taqiqlangan joylarda yoxud taqiqlangan mudatlarda, taqiqlangan qurollar yoki vositalar bilan ov qilish yoki baliq ovlash, shu huquqbuzarliklarni sodir etish quroli va ashyolari musodara qilingan holda quyidagi jazo choralaridan biri qo'llanilishiga olib keladi. Ya'ni:

- ✓ fuqarolarga BHMning 25 baravaridan 30 baravarigacha (8 mln 500 ming so'mdan 10 mln 200 ming so'mgacha) miqdorda jarima;
- ✓ mansabdor shaxslarga BHMning 40 baravaridan 50 baravarigacha (13 mln 600 ming so'mdan 17 mln so'mgacha) miqdorda jarima;
- ✓ 3 yilgacha muddatga ov qilish huquqidan mahrum etishga sabab bo'ladi.

Qonunni bilmaslik javobgarlikdan ozod qilmaydi...



**Endi muammoli yer uchastkalarini qonuniy rasmiylashtirish mumkin.**





## TIL BILGAN - EL BILADI



Har qanday soha rivojida, xorijiy tajriba va yangiliklarni o'rganishda, mamlakatga innovatsiya hamda investitsiyalar olib kirishda, yangi g'oyalar va texnologiyalarni o'zlashtirishda, ijtimoiy-madaniy yo'nalishdagi jarayonlarda, o'zaro aloqalarni mustahkamlashda albatta, til bilish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarning madaniy o'ziga xosligini o'rganish, ilmiy va ijodiy faoliyatlarda o'zaro tajriba almashishda ko'p tillilik o'z so'zini aytadi.

Shu bois, mamlakatimizda ham xorijiy tillarni o'rgatish ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Prezidentimizning 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida Vazirlar Mahkamasi huzurida Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi hamda uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy vakillari lavozimlari tashkil etildi.

Aholi orasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish va ularni mukammal o'zlashtirish uchun zarur sharoitlar yaratish, xorijiy tillarni o'qitishning xalqaro tan olingan dastur va darsliklari ta'limning barcha bosqichlarida joriy etilishini muvofiqlashtirish hamda o'qituvchilarda zamonaviy o'qitish ko'nikmalarini rivojlantirish, hududlar, tarmoqlar va ta'lim muassasalarining xorijiy tillarni o'zlashtirgan mutaxassislariga ehtiyojini qondirish yangi agentlikning asosiy vazifalaridir. Shuningdek, agentlik zimmasiga xorijiy tillarni o'qitish sohasida "bog'chamaktab-oliy ta'lim tashkiloti-korxonalar" tamoyilidagi uzluksiz ta'lim zanjirini joriy etish maqsadida aholining barcha qatlamlariga mos bo'lgan tilni o'rganish bo'yicha uslubiyot va tavsiyalarni ishlab chiqishni muvofiqlashtirish vazifalari yuklatilgan.

Ta'kidlash joizki, xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilishi, xalqaro tajriba hamda zamonaviy uslublarni ommalashtirish, barcha soha xodimlarining xorijiy tillarni bilish salohiyatini yuksaltirish, o'quv muassasalarida xorijiy tillarni o'rganishga yo'naltirilgan uzluksiz ta'limni keng joriy qilish til bilish sohasidagi ishlar samaradorligini ta'minlaydi. Bu borada nafaqat markaz, balki hududlarda ham aholi vakillariga, yoshlarga til o'rganish imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

Davlatimiz rahbarining topshirig'iga asosan viloyat, tuman va shahar hokimlari hududlarda chet tillarini o'rgatish muhitini shakllantirish, bunga tashkiliy va moliyaviy sharoit yaratishga shaxsan mas'uldir.

Albatta, Uchinchi Renessans poydevorini qurishda xorijiy tillarni puxta egallagan kadrlarning o'rni ham beqiyos. Chunki xorijiy ilg'or g'oyalar, yangi texnologiyalar va bilimlarni egallash hamda yurtimizda tatbiq etish imkoniyatiga faqatgina til bilish orqali ega bo'lish mumkin. Shunday ekan, samarali o'qitish uslublari, dastur va darsliklarni bog'cha, maktab, litsey, oliygoh hamda o'quv markazlarida joriy etib, xorijiy tillarni mukammal o'zlashtirish lozim. Buning uchun esa xorijiy tillarni puxta biladigan kadrlar safini kengaytirish maqsadga muvofiq.

**Dilso'z ZOYIROVA,**  
TDYU xorijiy tillar kafedrasida katta o'qituvchisi

So'nggi yillarda mamlakatimizda kechayotgan sud-huquq islohotlari doirasida qonunchiligimizga odil sudlovni samarali tashkil etish, javobgarlik choralarini liberallashtirish, shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qiluvchi yangi normalar kiritilmoqda. Shulardan biri 2023-yil 28-oktabrda Vazirlar Mahkamasining "Jabrlanuvchilar, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar va xolislariga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'larni hisoblash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorining qabul qilinishidir.

## PROTSESSUAL CHIQIMLARDAGI MUAMMOLAR



Mazkur qaror asosida odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslarga sud ishida ishtirok etgani uchun to'lanadigan protsessual chiqimlarni hisoblash va to'lash tartiblari belgilandi. Xususan, doimiy yashash joyi uzoq bo'lganlar uchun kelib-ketish xarajatlari, mehmonxona xarajatlari, kundalik xarajatlari, ekspert, tarjimon, mutaxassisga xizmat topshirig'i bilan bog'liq bo'lmagan vazifalarni bajarganlik hamda doimiy ish haqi olmaydigan jabrlanuvchilar, guvohlar va xolislarini odatdagi mashg'ulotidan chalg'itganlik uchun to'lovlarni amalga oshirish masalalari qayd etilgan.

Respublikamiz sud-huquq tizimidagi islohotlar qanchalik keng qamrovli bo'lmasin, protsessual chiqimlar borasida ayrim muammolar ham yo'q emas. Xususan, bunday chiqimlarni undirishdagi kamchiliklar sababli ba'zi to'sqinliklar yuzaga kelmoqda.

Protsessual chiqimlarning ahamiyati shundaki, ular ishning tez va to'laqonli bajarilishiga zarur shart-sharoitlarni yaratib beradi. Protsess ishtirokchilarining kelib-ketish bilan bog'liq moliyaviy muammolariga chek qo'yadi. Jinoyat haqida berilgan ariza va xabarlar o'z tasdig'ini topmaganda ularni tekshirish bilan bog'liq xarajatlar undirib olinishi asossiz murojaatlarni va huquqni muhofaza qiluvchi organlarining ish yuklamasini kamaytiradi. Turli sohaga oid bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislar hamda zarur ma'lumotga ega ishtirokchilarni ko'proq jalb etish orqali ish sifatini oshiradi. Ishlarni yuritishda sarflangan xarajatlar miqdorini aniqlash va ularni undirib olishni ta'minlaydi.

Jinoyat-protsessual kodeksining 318-moddasida protsessual chiqimlar jumlasiga nimalar kirishi belgilangan. Shu bilan birga, mazkur moddada ashyoviy dalillarni saqlash va jo'natish

bilan bog'liq xarajatlar summasi protsessual chiqimlar sifatida nazarda tutilgan bo'lsa-da, bugungi kunda ushbu normalarning amaliyotda qo'llanishida turli xil tushunmovchiliklar yuzaga kelmoqda. Masalan, ashyoviy dalillarni olib kelish, tashish, shuningdek murdalarni va ularning qismlarini tashishga sarflangan summalar xarajati aniqlashtirilmagan.

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 131-moddasiga asosan, ashyoviy dalillarni demontaj qilish, saqlash, o'tkazish va tashish, shuningdek murdalarni hamda ularning qismlarini olib kelish (tashish) ga sarflangan summalar protsessual chiqimlar turlari sifatida aniq nazarda tutilgan.

Qonunchiligimizda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning sudga kelmagani tufayli sud muhokamasi boshqa kunga qoldirilishi bilan bog'liq xarajatlar ham protsessual chiqimlar sifatida nazarda tutilmagan. Binobarin, ularni qoplashda anglashilmovchiliklar mavjud.

Qozog'iston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 177-moddasida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi uzrsiz sabablarga ko'ra kelmagan taqdirda tergovga yoki sudga majburan keltirilishi, shuningdek, sudlanuvchining uzrli tarzda kelmagani yoki mast holda sudga kelishi sababli sud muhokamasining boshqa muddatga qoldirilganligi tufayli sarflangan summalar protsessual chiqimlar qatorida sanab o'tilgan.

Qonunchiligimizda protsessual chiqimlardan yana biri sifatida ekspertiza muassasalarida ekspertiza o'tkazish uchun sarflangan summa ham keltirib o'tilgan. Ammo bu bo'yicha ham amaliyotda bir qancha tushunmovchiliklar bor.

Belarus Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 162-moddasiga muvofiq, ekspert (maxsus)

asbob-uskunalarini ekspertizadan o'tkazish va joriy ta'mirlash uchun foydalaniladigan sarf materiallarini sotib olishga davlat sud ekspertiza tashkilotlari tomonidan sarflangan mablag'lar protsessual chiqimlar sifatida e'tirof etilgan. Shu kabi normani Ozarbayjon va Moldova davlatlari jinoyat protsessual kodekslarida ham uchratish mumkin.

Ozarbayjon Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 197-moddasida sud xarajatlari sifatida tergov eksperimenti yoki jinoyat ishi bo'yicha ekspertiza o'tkazish chog'ida shikastlangan yoxud yo'qolgan ashyolar qiymatini to'lashga sarflangan mablag'lar summasi va shu kabi boshqa xarajatlar ham mavjud. Moldova Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi 227-moddasida esa sud-tibbiyot ekspertizasi yoki hodisani qayta tiklash paytida shikastlangan yoki yo'q qilingan narsalarning qiymatini qoplash uchun sarflangan mablag'lar protsessual chiqimlar deya e'tirof etilgan.

Ta'kidlash joizki, davlat sud ekspertiza muassasalari va ularning hududiy bo'limlari zamon talablariga javob beradigan yetarli uskunalar bilan ta'minlanmagan. Shuningdek, ayni muassasalarga mablag' yetishmovchiligi natijasida yangi uskunalar olinmasligi sababli, vakolatli organlar tomonidan sud ekspertlari oldiga qo'yilgan ayrim savollar hal qilinmasdan qolmoqda. Shu bois, tilga olingan sarf-xarajatlar ham qonunchiligimizga protsessual xarajatlari sifatida kiritilsa va mahkumlardan undirilsa, odil sudlov yanada samarali ta'minlanishiga erishish mumkin.

**Malika ERALIYEVA,**  
**Farida ALLAMBERGENOVA,**  
TDYU 4-bosqich talabalari



☐ **Jamiyatning taraqqiyot bosqichlarida kishilarning yangi turdagi haq-huquqlari va unga bo'lgan munosabatlar bilan birga, ularni tartibga solishga bo'lgan zarurat ham paydo bo'la boshlaydi. Insoniyat tarixida kitob bosishning ixtiro qilinishi bilan ushbu kitoblarda bayon qilingan matnlarni mualliflik huquqi bilan himoya qilishga ehtiyoj yuzaga keldi. Mualliflik huquqlarini himoya qilishga qaratilgan ilk qonunchilik hujjat namunasi sifatida 1710-yilda qabul qilingan Angliya qirol-chasi Anna statutlarini misol qilib keltirishadi.**

## MUALLIF MUTLAQ HUQUQLARGA EGA



Fransiyada 1791-yil qabul qilingan Dekretga asosan mualliflik huquqlari muallifning vafotidan keyin ham uning vorislariga nisbatan joriy qilinadigan huquq sifatida e'tirof etildi.

XIX asrning oxirlariga kelib sanoat-texnika taraqqiyoti jadal sur'atlarda rivojlanib borishi, bu bilan asarlarning chop etilishi katta iqtisodiy foyda keltira boshlagani, xalqaro miqyosda ilmiy-texnikaviy bozor vujudga kelgani hamda turli mamlakatlarda bu sohaga doir qonunlarni tartibga solish zarurati vujudga kelishi natijasida 1886-yil 9-sentabrda Xalqaro Bern Konvensiyasi qabul qilindi va bu bilan xalqaro toifada mualliflik huquqiga oid munosabatlar tartibi o'rnatildi. 1967-yil 14-iyulda Stokgolmda qabul qilingan Butunjahon intellektual mulk tashkilotini ta'sis etish haqidagi Konvensiyada intellektual mulk huquqi obyektlari doirasi belgilab berildi.

Bugungi kunda O'zbekistonda mualliflik huquqiga oid munosabatlar 2006-yil 20-iyulda qabul qilingan "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solib kelinadi.

Ushbu qonunchilikka ko'ra, ijodiy mehnati bilan asar yaratgan jismoniy shaxs muallif sifatida e'tirof etilishi belgilab qo'yilgan. Fan, adabiyot va san'at asariga mualliflik huquqi uni yaratilishi bilan yuzaga keladi. Mualliflik huquqining yuzaga kelishi va amalga oshirilishi uchun asarni ro'yxatdan o'tkazish yoki biron-bir boshqa rasmiyatchilikka rioya etish talab qilinmaydi.

Tabiiyki, asarning asl nusxasida yoki nusxasida muallif sifatida ko'rsatilgan shaxs asar muallifi hisoblanadi. Agarda asar imzosiz yoki taxallus ostida chop etilgan bo'lsa, asarni chop etgan, asarda ismi-sharifi yoki nomi ko'rsatilgan noshir, muallifning vakili hisoblanadi hamda muallifning huquqlarini himoya qilish va ularning amalga oshirilishini ta'minlash huquqiga ega bo'ladi.



Mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi bo'lmish fan, adabiyot va san'at asarlariga nisbatan, ularning maqsadi va qadr-qimmati, shuningdek, ifodalinish usulidan qat'i nazar, tatbiq etiladi.

Qonunchilikka ko'ra, muallif asardan har qanday shaklda va har qanday usulda foydalanishda mutlaq huquqlarga ega. Yuridik va jismoniy shaxslar, asardan faqat huquq egasi yoki boshqa vakolatli shaxs bilan tuzilgan shartnomaga binoan, shu jumladan, mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomaga binoan yoxud ular bo'lmagan taqdirda, bu tashkilotlarning vazifalari va majburiyatlarini bajaruvchi tashkilot bilan tuzilgan shartnomaga binoan foydalanishlari mumkin. Asardan foydalanishda daromad olishni maqsad qilish yoki maqsad qilmaslikdan qat'i nazar, asardan foydalanilgan deb hisoblanadi.



**Asarni barchaning e'tiboriga yetkazish, asarni sim (kabel) orqali yoki boshqa shu kabi vositalar yordamida uzatish yo'li bilan barchaning e'tibori uchun yuborish muallif yoki huquq egasining asardan foydalanishga bo'lgan mutlaq huquqlari sirasiga kiradi.**

Shuningdek, huquq egasi yoki mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot bilan shartnoma tuzmasdan asarlar yoki turdosh huquqlar obyektini takrorlash, tarqatish yoki undan boshqacha tarzda foydalanish mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzish hisoblanadi.

Asarlardan yoki turdosh huquqlar obyektlaridan qonunga xilof ravishda foydalanish hamda asarlarning yoki turdosh huquqlar obyektlarining kontrafakt nusxalarini takrorlash, tarqatish, barchaning e'tiboriga yetkazish, asarlarning yoki turdosh huquqlar obyektlarining nusxalarida ularning tayyorlovchilari haqida, ularni ishlab chiqarish joylari to'g'risida, shuningdek, mualliflik huquqining va turdosh huquqlarning egalari haqida yolg'on axborotni ko'rsatish qonunchilikka binoan javobgarlikni keltirib chiqaradi.

**Akbar AHROROV,**

Sirdaryo viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

☐ **Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-noyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan "Notariuslar tomonidan avtomototransport vositalarini boshqa shaxsga o'tkazish haqidagi bitimlarni tasdiqlashning ma'muriy reglamenti"ga muvofiq, bitimni rasmiylashtirishni so'rab kar-soqovlik nuqsoni (kar-soqov, kar, qulog'i og'ir, zaif eshituvchi), ko'zi ojiz (ko'r, zaif ko'ruvchi) bo'lgan shaxs murojaat qilsa hamda u savodsiz bo'lsa, bitimni tasdiqlash paytida u bilan muomala qila oladigan va bitimning mazmunini uning xohish-irodasiga muvofiq ekanini o'z imzosi bilan tasdiqlovchi surdo yoki tiflo tarjimon hozir bo'lishi shart.**

## Nuqsoni bo'lgan shaxslar ishtirokida bitim qanday tasdiqlanadi?



Agarda notarius kar-soqovlik nuqsonli fuqarolar bilan muloqot qila olsa va ko'zi ojiz fuqaro uchun mo'ljallangan moslama bilan ishlay olsa, unda surdo yoki tiflo tarjimonning ishtiroki talab etilmaydi.

Murojaat qiluvchi bitimni o'z qo'li bilan imzolay olmasa, bitim uning topshirig'iga ko'ra uning o'zi va notarius hozirligida boshqa fuqaro tomonidan imzolanishi mumkin. Bunda notarial harakatni amalga oshirishni so'rab murojaat qilgan fuqaroning hujjatni o'z qo'li bilan imzolay olmagani sabablari hujjat matniga va tasdiqlovchi yozuvga yozib qo'yilishi lozim.

Notarius mazkur harakatlarni amalga oshirishda hujjatni imzolagan fuqaroning, surdo yoki tiflo tarjimonning imzosi haqiqiylikini shahodatlashni alohida notarial harakat sifatida ro'yxatga olmaydi.

Bir shaxs hujjatni imzolovchi fuqaro, surdo yoki tiflo tarjimon sifatida notarial harakatni amalga oshirishda ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi.

Surdo tarjimonning vakolati unga O'zbekiston Respublikasi karlar jamiyati tomonidan va tiflo tarjimonning vakolati unga O'zbekiston Respublikasi ko'zi ojizlar jamiyati tomonidan berilgan ishonchnoma va xizmat guvohnomasi orqali aniqlanadi.

Kar-soqovlik nuqsoni bo'lgan hamda muomala layoqatiga ega bo'lgan savodli fuqaro notarial harakatlarni amalga oshirishni so'rab murojaat qilsa, bitim uning o'zi tomonidan va surdo tarjimon tomonidan imzolanishi mumkin.



**Kar-soqovlik nuqsoni bo'lgan, muomala layoqatiga ega bo'lgan, biroq surdo tarjimon bilan muloqot qila olmaudigan savodli fuqaro o'z imzosi bilan bitim mazmunini o'zining xohish-irodasiga muvofiq ekanini notarius bilan uzoq vaqt davomida bildiradigan bo'lsa, notarial harakatlarni amalga oshirishda surdo tarjimonning ishtiroki shart emas. Ushbu yozishmalar bitim bilan birga tikib qo'qiladi. Mazkur bandeda belgilangan tartibda bitimni imzolash jarayoni audio va videoyozuv vositalaridan foydalanilgan holda amalga oshiriladi.**

Agar notarial harakatni amalga oshirishni so'rab murojaat qilgan fuqaro savodsiz, ko'zi ojiz bo'lsa yoki qandaydir sabablar tufayli ko'zi yaxshi ko'rolmasa, shuningdek, kasalligi tufayli bitimni o'qiy olmasa, notarius unga hujjat matnini ovoz chiqarib o'qib beradi va bu haqda hujjat matnida va tasdiqlovchi yozuvda qayd etadi.

Tarjimon yoki surdo tarjimon yoxud tiflo tarjimon hujjat tarjimasini noto'g'ri yoki yolg'on tarjima qilgani uchun qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortilishi haqida notarius tomonidan ogohlantiriladi va bu haqda hujjat matnida ko'rsatiladi.

**Behzod RAHMONOV,**

Buxoro viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

### ✎ E'OLON

Namangan tumanlararo ma'muriy sudining 2024-yil 1-martdagi hal qiluv qarori (5-1601-2404/90-sonli ish bo'yicha) bilan "Namangan advokatlar hay'ati" advokatlar hay'ati advokati Xakimov Murad Turgunpulatovichga berilgan advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi olti oy muddatga to'xtatildi.

Shunga ko'ra, Namangan viloyat

adliya boshqarmasining 2024-yil 4-apreldagi 77-um-sonli buyrug'i bilan "Namangan advokatlar hay'ati" advokatlar hay'ati advokati Xakimov Murad Turgunpulatovichga 2022-yil 1-aprel kuni berilgan L-70664442-sonli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi hamda advokatlik maqomi joriy yilning 1-oktabr kuniga qadar bo'lgan davrga to'xtatildi.



## 8 MUNOSABAT

1983-1984-yillarda Bosh prokuraturada sudlarda jinoyat ishlarini ko'rish ustidan prokurorlik nazoratini amalga oshirish bo'limida boshliq, Bosh prokuratura kollegiyasi a'zosi bo'lib ishlaganman.



## “KASBI-KORIM ADOLAT BO'LDI” KITOBINI O'QIB...

Yozuvchi Shohruh Akbarovning uzoq yillar Oliy sud raisi bo'lib ishlagan Ubaydulla Mingboyevning hayoti va samarali faoliyatiga bag'ishlangan, yaqinda chop etilgan “Kasbi-korim adolat bo'ldi” deb nomlangan kitobini o'qib, o'zim ham sud sohasida ko'p yillar tuman, viloyat sudlari raisi bo'lib ishlaganim uchun o'zgacha iftixor tuyg'usini his etdim.

Mehnat faoliyatim davomida Ubaydulla Qurbonovich bilan bevosita yonma-yon ishlamagan bo'lsam-da, men Bosh prokuraturada, u kishi esa Buxoro viloyat sudida bir davrda ishlaganimiz sababli viloyat sudi jamoasi, shaxsan Mingboyevning adolatparvarligi haqida tez-tez iliq so'zlarni eshitib turar edim.

Kitobni o'qib, prokuratura va sud tizimidagi og'ir va murakkab yillar hamda adolat yo'lidagi mashaqqatlar ko'z o'ngimda beixtiyor gavdalandi. Bir inson taqdiri haqidagi voqeani hikoya qilishni lozim ko'rdim.

1984-yil haftaning shanba kunlaridan biri edi, taxminan soat 15:00 larda o'sha paytda Bosh prokuror bo'lgan N. Bo'rixodjayev xonasiga chaqirib, darhol samolyotda Qashqadaryoga uchishimni, u yerda viloyat prokurori B. Kalonov kutib olishini, bir jinoyat ishi bo'yicha O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining 2-kotibi O. Osetrovga axborot berishimni tayinladi. Borsam, viloyat prokurori men o'rganib xulosa berishim kerak bo'lgan jinoyat ishini seyfida saqlab qo'ygan ekan. Ish taxminan 25-30 varoqlar chamasi ekan, yarim soatlar ichida ish materiallari bilan tanishdim. “Delo” chiroqchilik o'rta maktab o'qituvchisi Ergash Boymatov haqida edi. Boymatovning 10 nafar oila a'zosidan 9 nafari paxta yig'im-terimida qatnashayotganiga qaramasdan, ruhiy xastalikka chalingan ayoli paxta terimiga chiqmagani uchun jamoa xo'jaligi partiya tashkiloti kotibi tomonidan haqoratlangani, bunga chiday olmagan o'qituvchi kechki payt jamoa xo'jaligi idorasiga borib, “Qayerda bu eshak kalla partkom” deb shu yerda bo'lganlardan so'ragani uchun o'sha paytda amalda bo'lgan ashaddiy bezorilik uchun jinoiy javobgarlikni ko'zda tutuvchi Jinoyat kodeksining 204-moddasi ikkinchi qismi bilan 2 yil muddatga ozodlikdan mahrum

qilingan. O'qituvchi aybsiz aybdor bo'lib qamalgan. Uyida esa ruhiy kasal xotini 8 nafar voyaga yetmagan bolalari bilan qolgan.

Bu jinoyat ishini qo'zg'atish, ayb e'lon qilish va uni sudga ko'rib, hukm chiqarishga bor-yo'g'i 3 kun kifoya qilgan. Sudlanuvchi hatto sud hukmi qonuniy kuchga kirmasidan jazoni ijro etish muassasasiga jo'natib yuborilgan. Jinoyat ishi o'ta oddiy va u yuzasidan xulosa qilish har qanday huquqshunosga qiyinchilik tug'dirmasligi shundoqqina ayon bo'lsa-da, yuqoridan berilgan topshiriqning mas'uliyatini his qilgan holda o'z xulosamni naqadar asoslilikiga ishonch hosil qilish uchun viloyat prokurori bilan jinoyat ishini olib Chiroqchi tumaniga bordik. U yerda bizni tuman prokurori Nodirboyev, tuman sudining raisi Hayitov va boshqalar kutib olishdi. O'sha joyda Boymatovga qo'yilgan ayblovning qanchalik to'g'riligini atroflicha o'rgandim va jinoyat ishini buyurtma ish ekanini aniqladim. O'sha paytda paxta yig'im-terimi qizg'in avjiga chiqqan davr edi. Shu vaqtda barcha birinchi rahbarlar paxta topshirish rejasini qanday qilib bajarish haqida bosh qotirar, ular uchun “osmon uzoq, yer qattiq” edi. O'shanda Chiroqchi tumanida birinchi rahbar avval prokuror bo'lib ishlagan Tillayev janoblari ekan. Shu kunning o'zida Boymatovning harakatida jinoyat tarkibi yo'qligi haqida Markazkomning 2-kotibiga axborot berdim. Kotib axborotimni tingladi va “keyinchalik fikringizni o'zgartirmaysizmi” deb so'radi, men yo'q deb javob berdim. Osetrovning oldidan chiqishim bilan respublika prokurori telefonga chaqirib “xato qilmayapsizmi” deb so'radi, men yo'q deb fikrimda qat'iy turdim. Sud hukmi viloyat prokurori tomonidan darhol protest qilindi va ish Buxoro viloyat sudida U. Mingboyev rahbarligida nazorat tartibida ko'riladi, mahkum ozodlikka chiqarildi.

Yozuvchi Shohruh Akbarovning kitobida aniq faktlar asosida keltirilgan misollar ham keng jamoatchilikda qiziqish uyg'otishi shubhasiz.

Ushbu tarixiy hujjatli roman faqat sudyalarga uchun qo'llanma bo'lib xizmat qilmasdan, undan barcha tergov va surishtiruv tashkilotlari xodimlari, talabalar, oddiy fuqarolardan tortib keng jamoatchilik vakillari ham foydalanishi ayni mudao bo'lar edi.

Men ToshDUning yuridik fakultetini kunduzgi bo'limida 5 yil a'lo baholarda o'qigan va uzoq yillar prokuratura, adliya va sud idoralari-da samarali ishlab, yetarli hayotiy tajribaga ega bo'lgan bo'lsam-da, “Kasbi-korim adolat bo'ldi” kitobini o'qib, fanda va hayotda mavjud masalalarni bilganimdan-da ziyodroq mantiq borligini sezdim. Asarda muallif qahramon nomidan sudyalarga “Stolingiz ustiga oila a'zolaringizning suratini qo'ying!” deyishi, Toshkent shahar sudi sudyalari Chig'atoy qabristoniga ziyoratga olib borganini eslatishi, dalillarni xolisona baholashda har tomonlama o'rganilgan ko'rsatmalarga, arizachilarning vajlariga ishonish, ularning bekorga murojaat qilmasliklarini hech qachon esdan chiqarmaslik, shoshmasdan mustaqil qarorlar qabul qilish, sudyalarning odobi ularning yurish-turishida, yashash tarzida, gap-so'zida namoyon bo'lishi haqida ibratli maslahatlar hamda eslatmalar bildirgan.

Bu fikrlarga asarni o'qigach, o'zingiz iqrar bo'lasiz.

**Otaboy DO'SCHANOV,**  
mehnat faxriysi, I darajali sudya, I darajali adliya maslahatchisi

## ADLIYA FAXRIYSI

Ibragim Shodmonovichning nomi nafaqat forishliklarga, balki jizzaxliklarga ham juda yaxshi tanish. Sababi, Ibragim aka mehnat qilgan sohalar xalqqa yaqin, aniqrog'i, xalq bilan birga! Ichki ishlar tizimida hamda notarial idoradagi uzoq yillik halol mehnatlari, sohaga sadoqati qahramonimizni elga tanitgan, o'ziga yarasha hurmat va e'tiborga sazovor etgan.

**Qutlug' yoshingiz muborak bo'lsin, zamondoshim!**



Katta oilada o'sgan, serfarzand, serdavlat insonning mehnat faoliyati, umr yo'li ibrat olsa, faxrlansa arzigulik. Ikki yillik harbiy xizmatdan so'ng Do'stlik tuman ichki ishlar bo'limida oddiy xodimlikdan ish faoliyatini boshladi. Ichki ishlar vazirligi qoshidagi Toshkent Oliy militsiya maktabini tamomlab, Ichki ishlar vazirligi idoralarida o'n besh yil yurtimiz osoyishtaligi yo'lida xizmat qildi. Ichki ishlar idoralarida chiniqdi, mehnatda, jasorat imtihonlarida toblandi, Vatan posboni sifatida katta dovonlardan, kerak bo'lganda chig'iriqlardan o'tdi. Qaysi vazifada, qaysi lavozimda ishlamasin, Vatanga sadoqat bilan xizmat qildi.

Huquq tartibot idoralarida orttirgan tajribasi notariat sohasidagi faoliyatida ham qo'l keldi. Umrining 20 yilini notariuslikka bag'ishlagan qahramonimiz dastlab Zafarobod tuman davlat notarial idorasining notariusi, keyinchalik Forish tuman davlat notarial idorasi notariusi sifatida fuqarolarga xizmat qildi. Ish faoliyati davomida huquqiy yordamga muhtoj, maslahat so'rab kelganlarga bajonidil yordam berdi. Uning huzuriga kimdir meros talashib, kimdir muammoli mulkini rasmiylashtirish uchun kelganda, ularga to'g'ri huquqiy yo'lni ko'rsatdi.

Yillar davomida cho'zilgan muammolarini yechishda qonuniy ko'mak bergani uchun yuzlab mijozlar hozirgi kunga qadar I. Kenjayevdan minnatdor.

Insonning yashashdan asosiy maqsadi – jamiyatda o'z o'rnini topish, ezgu orzu-niyatlarga yetishish, o'zi sevgan kasb egasi bo'lish, odobli va tarbiyali farzandlarni voyaga yetkazishdan iborat. Ibragim aka ham 70 yillik dovondan turib, ortga nazar tashlarkan, topgan hurmat va e'tibori, tajriba va martabalariga shukur qiladi. Tarbiyalagan farzandlari va shogirdlariga qarab, umri bekorga o'tmaganini his etib, faxrlanadi. Inson uchun eng muhimi, shu!

Qutlug' yoshingiz muborak bo'lsin, qadrlil zamondoshim! Elga qilgan xizmat va mehnatlaringiz rohatini ko'ring!

**Marusa HOSILOVA,**  
“Inson va qonun” muxbiri

**INSON**  
va qonun

MUASSIS:  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ADLIYA VAZIRLIGI

“Adolat” milliy huquqiy axborot  
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda  
O'zbekiston  
Matbuot va axborot  
agentligida  
0081-raqam bilan  
ro'yxatga olingan



**Bosh  
muharrir**

Asliddin  
ALIMARDON

## TAHRIR HAY'ATI

**Alisher Karimov**  
**Furqat Tojiyev**  
**Akbar Musayev**  
**Xayotjon Klichev**  
**Sevara O'rinboyeva**  
**Yorbek Iskandarov**  
**Dilfuza Ergasheva**

Tahririyatga kelgan  
qo'lyozmalar taqriz  
qilinmaydi va muallifga  
qaytarilmaydi.

**Navbatchi**  
Xurshid Sultonov

**Sahifalovchi-dizayner**  
Jasur Tojiyboyev

## Nashr indeksi: 137

“Inson va qonun” gazetasi hamda “Huquq va burch” ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida “KOLORPAK” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

**Korxonalar manzili:** Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

**Tiraji – 4125**  
Buyurtma – 1195

Topshirish vaqti – 19:00  
Topshirildi – 19:00

## MANZILIMIZ:

**100060, Toshkent sh.**  
**Amir Temur shohko'chasi**  
**19-uy.**

**Faks: (71) 233-28-18**  
**Obuna bo'limi:**  
**(71) 233-25-65**

Bahosi kelishilgan narxda

**1 2 3 4 5**